

**OLIV TA'LIM SHAROITIDA TALABALAR VA O'QITUVCHILAR  
MAS'ULIYATI: BA'ZI MUAMMO VA MUNOZARALAR**

Jumaboyeva Sarvinoz Olimjon qizi-  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Amaliy psixologiya yo'nalishi,  
1-bosqich talabasi  
Ilmiy raxbar - Maxmudov Salimjon  
Uralovich Jizzax davlat pedagogika  
universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta'lim sharoitida o'qituvchilar va talabalar o'rtasida sodir bo'ladigan nizolar va ularni oldini olish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilib, amaliy taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, o'qituvchi, talaba, tarbiya, pedagogik ko'nikma, individuallik, so'rovnom, ochiq muloqot.

Biror kasbning haqiqiy ustasi bo'lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma'lum jismoniy, va ruhiy islohatlar, puxta tayyorgarlik, shaxsiy tayyorgarlik va ayrim shaxsiy sifatlar bo'lish kerak. Pedagogik maqsadga yo'naltirishda qanday munosabatlarga e'tiborimizni qaratishimiz kerak. Pedagogik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq, asablari joyida bo'lishi, boshqalar bilan muomolada o'zini tuta olishi zarur. Shuningdek, bolalarni yoqtirishi ular bilan ishonch bilan ishlashga mayli borlik, xushmuomalalik keng fikrlay olish tashkilotchilik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjudligi ham kishining pedagogik ishga yaroqligini ko'rsatadi.

Talaba (arabcha: izlovchi, o'rganuvchi; lotincha: studens — qunt bilan ishlovchi, shug'ullanuvchi) -O'zbekistonda oliy o'quv yurti, AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa ayrim mamlakatlarda oliy va o'rta maxsus o'quv yurti o'quvchisi.

Talaba shaxsini hurmat qilish, eng avvalo, tenglik, teng huquqlilik, o'qituvchi va talaba o'rtasida lavozim, madaniyat va ta'lim darajasi, yoshi, hayotiy tajribasi va boshqalar farqiga qaramay hamkorlikni nazarda tutadi. Sheriklik – bu talabaning o'qituvchiga ob'ektiv ravishda bog'liqligi - ularning o'zaro munosabatlarning kasbiy xususiyatlaridan biri.

Biz bugun ba'zi qo'shtirnoq ichidagi talaba va ustozlarni ko'rib ular o'rtasidagi ba'zi muammo va munozalarni ko'rib chiqamiz. Talabani eng katta xatosi o'qishga be'e'tibor bo'lishi, shunchaki bu talabalik davr deb nomlangan ko'z bilan qarashidir. Keling endi talabalarni ba'zi ayb va hatolarini ko'rib chiqamiz. Ularning darsga kechikib kelishi, darsliklarni qilmasligi, ma'ruza va seminar darslarda eng birinchi

navbatda eng orqa qatorlarni to'ldirishi, o'ziga befoyda va keraksiz bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarda o'tirishi, darslarga kechikib kelishi, intizomga mos kelgan ravishda kiyinmasligi, hullas bunday holatlar talaygina biz hozircha shularni aytib qo'ya qolaylik. Bu oliy ta'lim ahir buni ba'zi talabalar hali ham his qilishmadi shekilli. Bu oliy ta'lim kelajakga yetarli bilimga ega bo'lgan kadrlarni yetishtirishmi yoki ba'zilarni fikriga ko'ra shunchaki davr surish, o'z-o'zini ko'z-ko'z qilishmi nima deb o'ylaysiz? Balki bu kabi holatlarini bas qilib ilm olish va turli xil tanlovlarda faol qanashib, davlat tomonidan belgilangan turli xil stpendiyalarga harakat qilsa, kelajakdagi sohasiga yetarli darajada bilim va ko'nikma olishni boshlashar.

Ho'p talabalarni bugunga yetarlicha tanqid qilib ko'rib chiqdik. Endi ustozlarga ham bir nazar tashlaylik. Ustozlar haqida so'z yuritilar ekan doimo Iskandar Zulqarnayn to'g'risidagi hikoya yodimga tushadi. U ishg'ol qilgan yurtining taxtiga birinchi bo'lib ustozini o'tkazar ekan. Bir kuni undan: "Nima uchun bunday qilasiz?" deb so'rashganda: "Ota-onam tug'ilishimga, ustozim esa yuksalishimga sababchi bo'lganlar", degan ekan.

Poshshaxo'ja ham ustozlarning mehnatisiz hech kim yuksala olmasligini aytib, Iskandarning o'z ustoziga bo'lgan hurmatini keltirib o'tgan:

Hech kim ustozsiz topmas jahonda izzu joh,

Nechakim hashmat bila Iskandari davron erur.

Darhaqiqat, biz erishgan har bir yutuqda ustozlarimizning hissalarini juda katta. Ustozlar haqida qancha gapirsak juda oz, ularning mehnatlari juda-juda katta. Lekin besh barmoq baravar emasdek ba'zi bir qo'shtirnoq ichidagi ustozlar haqida nazar tashlasak. O'tayotgan parasiga oyligini olish uchun emas haqiqatdan ham o'zidagi bilimlarni o'z talabalariga ulashar, yoki orqa qatorda o'tirgan talabalarga e'tibor bermay, men bergan bir paralik bilim, yoki ularga bir paralik intizom nima ham berar edi deb o'ylashi noto'g'ri emasmikan. Endi o'ylab ko'ringchi tepada keltirilgan fikrni boshqa ustozlar ham huddi shunday o'ylashsa, yurtimizning poydevorlari yoshlariga kim bilim beradi. Darsda qatnashmagan talabalarga pas ball qo'yib bo'lsa ham keyingi semestirga o'tkazib yuborishi, yozgi ta'tilda o'zini dam olish vaqtini tinch o'tkazaman deb o'ylashi menimcha bu kabi ustozlarni, xonalarga qo'yilgan kameralar dars o'tishga biroz tirgak bo'lib turibdi. Eslatib o'tamanki bu fikrlar barcha ustozlar uchun emas balki qo'shtirnoq ichidagi ba'zi ustozlar haqida va yana shuni aytish kerak-ki bu holat aynan bitta universitet yoki institutda bo'ladi deganimiz yo'q bu umumiy tushunchadir.

Biz yana bu yerda ochiq darslarda bo'lgan ba'zi jarayonlarni ham ko'rib chiqaylik. Ochiq darslar faqatgina bir kun uchun har kuni bo'lmaydigan sharlar, zarlar, har doim ham qo'llanilmaydigan metodlar, har doim kiyilmagan mukkamal formalar paydo bo'lib qoladi. Bu narsani tagida faqatgina rasm uchun, qog'ozbozlik uchunmi? Darsni kuzatayotgan ustozlar ham orqa partaga o'tirib olib faqat o'zini zimmasidagi

dars taxlil qog‘ozini qoralash uchun ertaga hisobot topshirish uchun kirishayaptimi? Darsga befarq qarab darsga hurmatsizlik qilib, qog‘ozlarni yetarli darajada qoralab olib dars yarmida chiqib ketishichi? To‘g‘ri bunday darslarni va bunday ustozlar deganda hammani nazarda tutganimiz yo‘q aslida.

Bu oliy ta‘lim bu yerda oliy ma‘lumotlilar tahsil oladi, demak bu ularga oliy darajadagi bilim berishimiz kerak. Bularni barchasi talabalar uchun, nega ular uchun? Chunki ular yurtimiz kelajagini belgilab beradi. Mana shu kelajakni shakillantirishda bir necha bosqich va davrlardan o‘tishadi. Bu bosqichlarning bir qismini Universitet va insitutlardir.

Biz quyidagi keltirilgan fikrlarimiz to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilish uchun va yuqoridagi bir necha savollarga javob topish uchun, ta‘lim olayotgan va ta‘lim berayotgan bir necha kishilardan kichik so‘ro‘vnoma o‘tkazdik. So‘rovnoma o‘tkazganimizda ko‘p ovozlari ustozlar tomoniga bo‘ldi. Hozirda yoshlar bebosh bo‘lib ketmayabdimikan, avvallari boshqacha edi bolasini ustozga topshirganda etisizniki, suyagi bizniki derdi, hech qachon bolasini orqasidan kelib ustoziga ta‘na qilmasdi, degan javoblarni oldik. Lekin bu kichik so‘rovnomamizda bu qadar katta bo‘lgan muhokamani yechish qiyin. Buni yanada tanqid qilish kerak, bu masalaga kengroq yondashib ko‘rib chiqish kerak. Chunki tanqid kelajak rivojlanishiga hissasi katta hisoblanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki bu shunchaki bizning fikrimiz edi. Bu yerda kimni oq? kimni qora? deyishimiz uchun bu mavzuni ochmadik. Shunchaki atrofimizdagi ba‘zi kichik bo‘lib ko‘ringan lekin kelajakga yomon ta‘siri bo‘lgan holatlarni yoritishga harakat qildik.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil qat‘iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi// Xalq so‘zi gazetasi 2017-yil 16 yanvar.

2. Makhmudov Salim Uralovich (2024). Possibilities Of Using Electronic Literature in The Educational Process Progress Annals. Journal of Progressive Research Volume 2, Issue 2, February 2024.

3. Makhmudov Salimjon Uralovich (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI. “CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH” Issue 4. April

4. Mamaraimova, R. (2024). КАК НЕ ПОДДАВАТЬСЯ ПРОВОКАТСИЯМ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 23-29. извлечено от <https://ppmedu.idpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9644>

13. P. U. Mamaraimova. (2022). TAʼLIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUN MOHIYATI. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 513–517. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337651>

5. Mamaraimova, R. (2022). UMUM TAʼLIM MAKTABLARIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH PSIXOLOGIK ASOSLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5549>

6. Mamaraimova, R. (2021). KICHIK MAKTAB ESHI UQUVCHILAR KOMPETENTLIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BAʼZI JIHAATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2967>

7. Odiljonova, X. (2024). O 'QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O'STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 3-11.

8. Qarshiboyeva, G., & Odiljonova, X. (2022). UQUVCHILARDA VALEOLOGIK BILIMNI OSHIRIB BORISH ASOSLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5).

9. Odiljonova, X. (2024). "MEN" KONSEPSIYASIGA YONDASHUVLARNING O'ZIGA XOSLIGI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 62-70.

10. Odiljonova, K. (2023). PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Science and innovation*, 2(B4), 267-272.

11. Sangirova, N. (2024). SHAXS IJTIMOIYLASHUVIDA OILANING ROLI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 69-73. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9725>

12. Sangirova, N. (2024). SHAXSDA GENDER USTANOVKALARINING UZINI-UZI IDROK ETISH BILAN BOGLIQLIGI MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 74-81. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9749>

13. O'tamuradova, G. (2024). BERUINIYNING SO'G'LOM AVLOD TARBIIYASI HAQIDA GI PSIXOLOGIK QARASHLARI . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 95-103. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9764>

14. Mamaraimova, R. (2024). PSIXOLOGIYA RELIYIOZNA YA ISPOVEDI I MEDITACII . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 30-36. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9645>

15. Mamaraimova, R. (2024). КАК НЕ ПОДДАВАТЬСЯ ПРОВОКАЦИЯМ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 23-29. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9644>

16. Ахмедова Насиба Ачиловна. (2022). КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖТИМОЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 529–532. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337671>

17. Р.У. Мамараймова. (2022). ТАЪЛИМ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНШНИНГ МАЗМУН МОХИЯТИ. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH, 2(12), 513–517. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7337651>

18. Mamaraimova, R. (2022). УМУМ ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5549>

19. Mamaraimova, R. (2021). КИЧИК МАКТАБ ЁШИ ЎҚУВЧИЛАР КОМПЕТЕНТЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ БАЪЗИ ЖИҲАТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2967>

20. O'ralova, O. (2024). ABU NASR FOROBIYNING MEROSINI O'RGANISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 4(2), 125-129. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9796>